

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA MIGRATSIION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Dilshoda Turg’unboyeva Azamjon qizi

Andijon davlat universiteti Geografiya

(o’rganish obyekti bo’yicha) mutaxassisligi

magistranti dilshodaturgunboyeva0109@gmail.com

[+998905716949](tel:+998905716949)

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda migratsiya jarayonlarining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan. Shu bilan birga zamonaviy dunyoda aholi migratsiyasi global tus olganini hisobga olingan holda, bu iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarning natijasi ekanligi belgilangan. Tahlillar natijasida migratsiya jarayonlarining asosiy oqibatlari mohiyatini ochib berilgan va ularni bartaraf etish bo’yicha taklif va tavfsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: migratsiya jarayonlari, migratsiya muammolari, migratsiya, noqonuniy immigratsiya, mehnat migratsiyasi oqibatlari, globallashuv.

Kirish. Aholi migratsiyasi – bu odamlarning (migrantlarning) bir joydan ikkinchi joyga xududlar chegarasi orqali, yashash joyini doimiy tarzda o‘zgartirayotgan qisqa va uzoq muddatlarda kelib ketishini anglatuvchi ko‘chishdir. Ilmiy adabiyotlarda aholi migratsiyasi deganda —aholining doimiy yashash joyi, o‘qish yoki vaqtincha yashash joyini o‘zgartirish maqsadida ma’muriy-hududiy tuzilmalarning ham tashqi, ham ichki chegaralarini kesib o‘tishi bilan bog‘liq har qanday hududiy harakati tushuniladi.¹ Bundan tashqari, migratsiyaga murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Migratsiya jamiyatning ko'plab sohalariga ta'sir ko'rsatadi, chunki migratsiya insoniyat tarixida muhim rol o'ynaganligi sababli, ular qabilaviy munosabatlarning rivojlanishi, yerlarning o'zlashtirilishi, turli irq, madaniyatlar, tillar va xalqlarning shakllanishi bilan bog'liq. Hozirgi kunga kelib migratsiya oqimlarining intensiv kengayishi kuzatilmoqda va shu bilan birga, migratsiya jarayoni barcha global o'zgarishlarning tarkibiy omiliga aylandi. Aholi

migratsiyasi hozirgi vaqtda global xususiyat kasb etmoqda va shu bilan birga globallashuvning ham belgisidir.² Globallashuv, ma'lumki, xalqlarning, davlatlarning birlashuv jarayoni; xalqlar ortasidagi chegaralarning yo'q qilinishiga, yagona siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy makonning vujudga kelishiga olib keladi. Globallashuv umumiy tizimga, jahon bozoriga, turli davlatlarning iqtisodiy tizimlarini birlashtiradi, bu esa xalqlarning madaniyati va turmush tarzini o'zgartirishga yordam beradi. Globallashuv jarayoni butun insoniyatning yangi ixtirolar, texnologiyalar, bilimlardan foydalanishini osonlashtiradi, rivojlanish va ijodkorlik uchun taqiq va cheklovlarni olib tashlaydi, shuning uchun globallashuv tizimli xarakterga ega bo'lib, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi.

Zamonaviy dunyoda nafaqat rivojlangan, balki uchinchi dunyo davlatlarini ham qamrab olgan globallashuv migratsiyani mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi, uni har qanday davlatning zarur tarkibiy qismiga aylantirdi. BMTning hisobotida ta'kidlanishicha, muhojirlarning yarimidan ko'pi dunyoning 10 ta mamlakatida istiqomat qilgan ekan. Ular orasida birinchi o'rinda AQSh (45,8 million), ikkinchi o'rinda Rossiya Federatsiyasi (11 million), uchinchi o'rinda Germaniya (9,8 million) joylashgan. —Migratsiya jarayonlarining globallashuvini degan yangi tushuncha paydo bo'ldi. Bu hodisa odatda shunday tushuniladi —aholining xalqaro migratsiya ko'lamining o'sishi, migratsiya dunyoning katta qismini qoplab borishi, globallashib borayotgan mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda migratsiya oqimlari tarkibi sifatini o'zgartirish.³

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ohirgi yillarda migratsiya jarayonlari tadqiqotini ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar olib bormoqda. Migratsiya va uning dushmanlari: global kapital, mehnat muhojirlari va milliy davlat Cohen, R.⁴ ishlarida tadqiq etilgan. Globallashuv sharoitida migratsiya siyosati Вертелецкая Н.П.⁵ tadqiqotlarida namoyon bo'lgan. Aholining migratsiya jarayonlari: nazariya va davlat migratsiya siyosati masalalari Воробьева О. Д.⁶ tomonidan o'rganilgan. Mahalliy olimlar migratsiya jarayoni va muammolariga bag'ishlangan mahsus tadqiqotlar orasida Kalonov.K (O'zbekistonda migratsiya jarayonlarining muhimligi)⁷, Максимова Л.П. (Migratsiyani tartibga solish)⁸, Abulqosimov X P.

(Milliy mehnat bozori uchun kadrlarni boshqarishni takomallashtirish yoʻnalishlari)⁹ kabi mahalliy olimlarning ilmiy ishlarini ajratib koʻrsatish mumkin. Ustozimiz Fanlar akademiyasining akademigi Q.X. Abdurahmonovning fikricha, mehnat migratsiyasi deganda mehnatga layoqatli aholining ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishdagi oʻzgarishlar bilan bogʻliq u joydan bu joyga koʻchib yurishi tushuniladi.¹⁰ L.P. Maksakovning takidlashicha, mehnat migrantlari chet elda ishni tashkil qilish, uni boshqarish, bozor iqtisodiyotida unumli mehnat qilib va zamonaviy bilimlarni egallab, tajriba va koʻnikmalarni ortirib qaytishadi, shu bilan birga ishchi kuchi eksporti Respublika valyuta tushumlarining sezilarli manbai boʻlim qoladi va shu daromad hisobiga koʻplab yangi ish joylarini tashkil etish imkoniyati ortadi.¹¹ Mehnat migratsiyasining oshib ketishi, davlatning demografik jixaddan rivojlanishiga taʼsirini koʻrsatmasdan qolmaydi. Migrantlarning huquqlarini himoya qilish, yangi ish oʻrinlarini yaratish, migrantlarning oilalarini qoʻllab – quvvatlash, turmush sharoiti ogʻir oilalarni har tomonlama oʻrganib har tomonlama koʻmak berish kabi muammolar uni tadqiqot etishni taqazo qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, statistik tahlil, taqqoslama tahlil, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda boshqa usullardan foydalanilgan. Tahlil va natijalar. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy qismi yoʻllanib ishlash uchun, mablagʻ orttirish maqsadida migratsiyani amalga oshirmoqda. Boshqa qismi esa bilim va malakasini oshirish maqsadida ketishmoqda. Statistika koʻra, Oʻzbekiston Respublikasi aholisining ishsizlik darajasi 2000-2004 yillarda 0,4% ni tashkil qilgan, 2007-2017 yillarda 4,9- 5,8% ni, oxirgi yillarga kelib esa 9,0-10,5% ni tashkil etmoqda. ¹² Ayniqsa pandemiya (COVID – 19) aholining ish jarayoniga va oilalarning daromadiga katta taʼsir koʻrsatdi. Pandemiya davrida 2019 yilga nisbatan ishsizlik darajasi 1,5% ga oʻsgan. Viloyatlar kesimida esa 2020 yilda eng yuqori boʻlgan hududlar – Qashqadaryo, Surxondaryo 11,0%, Jizzax va Samarqand 11,0%, eng past koʻrsatkich esa Toshkent shahrida kuzatilgan 8,0 ni tashkil qiladi. Statistika qoʻmitasining maʼlumotlariga qaraganda, 2019 yil xorijiy mamlakatlardan koʻchib

kelganlar 2526 ming kishini tashkil qiladi va ularning asosiy qismi qo‘shni davlatlardan kelgan migrantlar hisoblanib, Qozog‘istondan 33,2%, Rossiya Federatsiyasidan 23,3%, Tojikistondan 21,4% va Qirg‘izistondan 12,0% ni tashkil qilgan. Aksincha, chet davlatlarga ketgan migrantlar 13245 ming tashkil qilgan holda, Qozog‘iston 57,6%, Rossiya Federatsiyasi 37,8% va AQSH 0,8% ko‘chib ketgan. Bundan kelib chiqadiki, ko‘chib kelganlarga qaraganda ko‘chib ketganlar miqdori 5 barobarga yuqoridir. BMT ning ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining 2040 ming nafar fuqarosi yoki mehnatga layoqatlilarning 12%i chet elda ishlamoqda. Mehnat migrantlarini hududlar kesimida ko‘radigan bo‘sak, eng katta ko‘rsatkich: Samarqand – 268 ming, Farg‘ona – 247 ming, Qashqadaryo – 178 ming va Surxondaryodan – 167 ming kishi ekani ma‘lum bo‘di.

1-jadval Mehnat migratsiyasini qabul qiluvchi mamlakat uchun xorijiy mehnat resurslaridan foydalanish oqibatlarini.

Ijobiy oqibatlar	Salbiy oqibatlar
Mehnat bozori uchun oqibatlar	
Ishchi kuchi taqchilligi muammolarini kamaytirish	Mahalliy xodimlar ish haqqi kamayishiga olib keladigan mehnat bozorida demping
Migrantlarning uy xo‘jaligidagi bandligi ayollarning bandligiga ko‘maklashadi	Mahalliy aholi orasida ishsizlik oshishi va malakasi pastroq xodimlarning marginallasuvi
Kichik biznes va tadbirkorlikda bandlikni oshirish	Mehnat bozorining ayrim sektorlari kriminallasuvi
Malakasiz ishlarda bandlikni ta‘minlash	Hudud mehnat bozorida —migratsiya an‘analarilning vujudga kelishi
Migrantlarning iqtisodiyotning —obro‘sizl sohalarida band bo‘lishi mahalliy xodimlarning vertikal mobilligiga ko‘maklashadi	
Inson kapitali rivoji uchun oqibatlar	
Yosh va malakali xodimlarni tanlab olish orqali ishchi kuchi sifatini oshirish	Malakasi past ishchi kuchi ko‘p bo‘lganda va o‘rinini bosish

(yuqori malakali ishchi kuchi segmentida)	tendensiyalari bor bo'lganda, milliy inson kapitali umumiy darajasi pasayadi
Qashshoqlikning oshishi (ish yo'qotishi sababli migrant deklassatsiya qilinganda)	
Tashqi iqtisodiy faoliyat uchun oqibatlar	
Mehnat resurslarini qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiy subyektlari bilan qo'shma korxonalar sonining oshishi	

Migratsiyaning intensivligini oshirish – iqtisodiy, etnik, mehnat – globallashtiruvning o'ziga xos xususiyati bo'lib, mamlakatlarning doimiy aholisi tarkibidagi migrantlarning ulushi globallashtiruv jarayonlarida ishtirok etish darajasini aks ettiradi. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlarining ham afzalliklari, ham kamchiliklari bor, shuning uchun qarama-qarshilik va nizolar manbasi bo'lib qoladi. Shunday qilib, immigratsion oqimlarlar rivojlangan mamlakatlarda o'zining asosiy millatlari ulushini kamaytiradi, chunki immigrantlarning tug'ilish darajasi yuqoriroq. Masalan, Germaniya, Italiya va boshqalarda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi soning keskin ortishi, ishchi kuchining haddan tashqari ortib ketishiga olib keldi. Ta'limning rivojlanganligi esa, yoshlarning o'sib borayotgan qismini mehnat bozori talablariga moslashishiga olib keldi. Bizning fikrimizcha mehnat migratsiyasi muammolarini bartaraf qilishning ikkita yo'li bor. Birinchi yo'li – mehnat migratsiyasini O'zbekiston Respublikasidagi ishchi kuchi taklifi va unga talab o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf qilish, mehnat migrantlari daromadlaridan milliy iqtisodiyotimizga qo'shimcha madad berish vositasi sifatida qarash siyosatini davom ettirish. Bu mamlakatimizda bandlik muammosini hal qilishning eng oson va kamchiqim yo'li hisoblanadi. Dunyoni katta miqyosda noqonuniy immigratsiya egalladi. Gap arzon va mutlaqo huquqsiz ishchi kuchi haqida bormoqda, ularning muhim qismini ayollar tashkil etadi. Noqonuniy harakatlar migrantlarning ommaviy chegaralanishiga va migratsiya munosabatlarining butun sohasini kriminallashtirishga olib keladi. Bu hodisaning yorqin namunasi Rossiya Federatsiyasidir. Tadqiqot natijalari. Qadimgi va yangi

yo'nalishlar bo'yicha xalqlarning ko'chishi turli madaniyatlar, diniy va milliy an'analarning to'qnashuvi va tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi bir maxsus hodisalar bilan birga keladi, bu qanchalik ko'p bo'lsa, birinchi navbatda qabul qiluvchi mamlakatlarga beqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Boshqa mamlakat va boshqa madaniyatda tug'ilgan bolalarni asrab olish hodisalari jadal sur'atlar bilan kengaymoqda. Ko'rib turganimizdek, migratsiya jarayonlari retsipient va donor mamlakatlar xalqlarining genofondiga ta'sir qiladi. Migratsiya yuqori malakali ishchi kuchi uchun jahon bozorini faollashtiradi. Bu hodisa AQShda, Kanadada kuzatiladi. Aksincha, malakasiz ishchilar migratsiyasi davlat to'siqlari uchrab bormoqda. Bir necha o'n yilliklar davomida barqaror mehnat migratsiyasi rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozorlarining segmentlanishiga va asosan migrantlar band bo'lgan tarmoqlarning taqsimlanishiga olib keldi. Bular, birinchi navbatda, yuqori malaka talab qilmaydigan, og'ir sharoitlar va kam maoshga ega bo'lgan nufuzli bo'lmagan ishlar, bular eng kamsitilgan, norasmiy yoki soyali bandlik segmentlaridir. Shunday qilib, sotsiologlarning fikriga ko'ra, Rossiyada norasmiy band bo'lganlar soni 25 million kishini tashkil etadi (iqtisodiy faol aholining 30% dan ortig'i).¹⁵

Xulosa va takliflar. Hududiy xarakterdagi nizolar tobora ko'payib bormoqda. UNFPA (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholi jamg'armasi) ma'lumotlariga ko'ra, 13 millionga yaqin qochqin qurolli to'qnashuvlar va zo'ravonliklardan qochib, o'z mamlakatlarini tark etishgan. Aholini katta qismi ijtimoiy va ekologik sabablarga ko'ra ketishga majbur. Migratsiya faolligining kuchayishi millatlararo muammolarni yanada kuchaytiradi. Turli madaniyatlar, qadriyatlar, konfessiyalar to'qnashuvi mavjud bo'lib, bu millatlararo nizo, urush kabi og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Globalashuv sharoitida tashqi migratsiyaning yana bir xususiyati ma'lum bo'ldi: xalqaro migratsiya oqimlari hozirgi vaqtda asosan rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi hisobiga shakllanmoqda, bu harakatning asosiy motivi o'zini va yaqinlarini yuqori turmush darajasi bilan ta'minlash istagi, dunyoning yetakchi mamlakatlarida boshqa mamlakatlarnikiga qaraganda o'n baravar yuqori. Immigrantlar nafaqat o'z vatanlariga qaytishdan qochishadi, balki o'zlarining yaqin qarindoshlarini ko'chib

ketishga undashadi. 16 Shunday qilib, migratsiya jarayonlarining globallashuvi, eng avvalo, inson resurslarining transmilliy oqimlarini, davlatlararo to'siqlar o'tkazuvchanligini ob'ektiv oshirish, davlat tezligi va intensivligini keskin oshirish hisoblanadi. Migratsiya oqibatlari, biz ko'rib turganimizdek, turli xil sohalarda namoyon bo'ladi, ular ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan globallashuv davrida mamlakatlar oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri bu migratsiya jarayonlarini aniq tartibga soluvchi samarali migratsiya siyosatini ishlab chiqish, mamlakatlarning mojarolarsiz va farovon rivojlanishi, ularning yanada iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy farovonligi ta'minlashdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Абдурахмонов Қ.Х., Абдураманов Х.Х. Демография. – Тошкент: Ношир, 2011. – Б. 209.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.09.2020 yildagi PQ-4829-son.
3. Kalonov.K O'zbekistonda migratsiya jarayonlarining muhimligi. // Turkiy tilli mamlakatlar sotsiologlarining 20-asrdagi fuqarolik jamiyati va ijtimoiy jarayon mavzusidagi II qurultoyi materiallari.
4. Cohen, R. (2006). Migration and its enemies: global capital, migrant labour and the nationstate, Oxford: Ashgate.
5. Вертелецкая Н.П. Миграционная политика в условиях глобализации // Мир и политика, 2012. №11.
6. Воробьева О. Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики // Проблемы правового регулирования миграционных процессов, 2003. — № 9 (202). — 35 б.
7. Максанова Л. П Миграция и рынок труда в странах Средней Азии – Ташкент 2002.
8. Nodirova N. O'zbekiston aholisining migratsiya jarayonida ishtiroki (Muammo va yechimlar). BMI – Samarqand.
9. Abulqosimov X P. O'zbekistonda ijtimoiy havfsizlikni taminlashning ayrim masalalari. Iqtisod va moliya,. 2019.. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish 2018.
10. Abulqosimov X P. va boshqalar. Milliy mehnat bozori uchun kadrlarni boshqarishni takomallashtirish yo'nalishlari,. 2009.
11. Muhitdiniv E M. Aholini ish bilan ta'minlashda mehnat migratsiyasining roli. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati 2019, 14 bet.
12. De Haas, H. (2010). Migration and Development: A Theoretical Perspective, International Migration Review, 44 (1): 227-264.

13. Porumbescu, A. (2012). East European Migration Patterns – Romanian emigration. *Revistades Stiințe Politice*.
14. Ивахнюк, И.В. Глобализация миграционных процессов / гл. ред. И.И. Мазур, А.Н. Чумаков. – М.: Радуга, 2006. – 340 б.
15. Римашевская Н.М. Человек и реформы: Секреты выживания. - М.: ИСЭПН РАН, 2003.- 392 с.
16. Вершинина И. А. Миграционные процессы в условиях глобализации: Социологический анализ факторов и тенденций развития, 2006. 138 б.
17. Уткин А.И. Мировой порядок XXI века. - М., 2001. – 513 б.
18. Федеральная служба государственной статистики [Elektron manba]. – Manbaga kirish uchun: <http://www.gks.ru> (manbaga kirilgan sana 19.05.2022).
19. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi <http://migration.uz/post/view/33>
20. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.